



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Husanova Mohinur
Tohir qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Maktabgacha
va Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy
ish yo'nalishi 4-kurs talabas

TALABA – YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH

Annotatsiya: Maqolada talaba - yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga berilayotgan e'tibor, Yurtboshimizning yoshlarga berayotgan e'tiborlari va farmonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: oila, oilaviy hayot, oila munosabatlari, oila qurish yoshi, milliy urf-odat, tarbiya, oilaviy muhit.

Студенческая - подготовка молодых людей к семейной жизни

Аннотация: В статье освещается внимание, уделяемое подготовке студентов и молодежи к семейной жизни, внимание и указы Президента страны к молодежи.



Ключевые слова: семья, семейная жизнь, семейные отношения, возраст создания семьи, национальная традиция, воспитание, семейная среда.

Student - preparing young people for family life

Annotation: The article highlights the attention paid to the preparation of students and young people for family life, the attention and decrees of the President of the country to young people.

Key words: family, family life, family relations, age of starting a family life, national tradition, upbringing, family environment.

Bugungi kunda mamlakatimizda xotin - qizlarga bo'lgan hurmat -e'tibor juda yuqori darajada bo'lib, ularga yetarli shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Jumladan, muhtaram yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan xotin – qizlarga bo'lgan e'tibor, chiqarilayotgan qaror va farmonlarda ko'rishimiz mumkin. Masalan, 2019 – yilning 2 – sentyabr kuni “Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida” gi qarori va “Xotin- qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi. Xotin – qizlarga yaratilayotgan shart – sharoitlar, ularning oiladagi va jamiyatdagi rolini, mavqeyini yanada oshirishga yo'naltirilgan ko'plab islohatlar amalga oshirilmoqda. Bunda xotin – qizlarni bilimli va savodli qilish, ish o'rinlarini yaratib berish, kasb-hunarga yo'naltirish muhim ishlar hisoblanadi. Xususan, joriy yilda Prezidentimiz Oliy Majlisga murojatnomasida qizlarni o'qimishli va savodli qilishga alohida to'xtalib o'tdi hamda talaba qizlarga alohida grant o'rinlari tashkil qilishni aytib o'tdi[1].

Dinimizda ayol ona, opa, singil, qiz sifatida ulug'lanadi. Ayolni ulug'lovchi hadislar va oyatlar ko'p. Ayolga nisbatan qanday muomalada bo'lish xususida Payg'ambar alayhissalom shunday deganlar: “Sizlarning eng yaxshingiz o'z oilasiga yaxshi muomalada bo'lganlaringizdir. Men esa sizlarning orangizdagi o'z oilasiga eng yaxshi muomala qilguvchi kishiman”. Alloh taolo Qur'oni Karimda: “Kim-u xoh erkak bo'lsin, xoh ayol – mo'minlik bo'lsin, xoh ayol mo'minlik holidagi savobli ishlar



qilsa, aynan ular jannatga kirurlar va ularga xurmo danagining ipicha ham zulm qilinmagay”(Niso surasi, 124-oyat)- deb marhamat qilinadi[4]. Bunday hikmatlarning mazmun – mohiyatini yoshlarning ongi va qalbiga singdirish kerak.

Hozirgi kunda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga, ularga mustahkam oila qurishni o`rgatishga kata e`tibor qaratilmoqda, ayniqsa talaba-yoshlarga bo`lgan e`tibor yana ham ortgan. Buni quyidagi qarorlardan ham ko`rish mumkin.

2022-2026-yillarga mo`ljallangan Xotin-qizlar ta`limini qo`llab-quvvatlash milliy dasturi qabul qilindi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan jamoatchilikka, avvalo, yoshlarga tarbiyaviy ta`sir ko`rsata oladigan, obro`-e`tiborli ayollarni o`z safida birlashtirgan “Oqila ayollar” harakati tashkil topmoqda. Shuningdek, barcha mehnat jamoalarida xotin-qizlarning muammolariga samarali yechim topish uchun “Ayollar kengashlari” tuzilmoqda.

2023-yil 1-mart kuni o`tkazilgan videoselektor yig`ilishida xotin-qizlar uchun yanada keng imkoniyatlar belgilandi. Bu vazifalarni tizimli va samarali amalga oshirish maqsadida, Bosh vazir o`rinbosari lavozimi qayta tiklandi hamda Oila va xotin-qizlar davlat qo`mitasi tashkil etildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 5-martdagi farmoniga muvofiq bir guruh xotin-qizlar yuksak unvon, orden va medallar bilan, Prezident qaroriga binoan esa yigirma sakkiz nafar qiz Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan mukofotlangan edi.

Shu taqdirlash marosimida ayollar va qizlarni e`zozlash kerakligi haqida ko`plab nutqlar baralla yangradi.

– Xotin-qizlar va oila masalasi – bu nafaqat bugungi kunimiz, balki ertangi kelajagimizni ham belgilab beradigan hal qiluvchi omildir. Agar biz mehr-oqibat va sadoqat timsoli, xonadonlarimiz farishtasi bo`lgan ayollarga bitta yaxshilik qilsak, hech shubhasiz, bu o`nta yaxshilik bo`lib qaytadi, – deya ta`kidladi Shavkat Mirziyoyev. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev – oilaning muqaddas ekanligini ta`kidlab, uni asrab-avaylashni yoshlarga o`rgatish uchun Bosh



vazir o'rinbosari – Xotin-qizlar qo'mitasi raisi T.Norboyevaga quyidagi vazifalarni yukladilar

“Birinchii vazifa- biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjalik, ahillikva o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bolmog'i zarur.

Ikkinchi vazifa- ayollar o'rtasida jinoyatchilik, oilalarda ajralishlar ko'paygani, yoshlarning turli diniy-ekstremistik oqimlar va terroristik tashkilotlar ta'siriga tushishi kabi xalqimizga xos bo'lmagan achchiq va noxush masalalar bilan bog'liq.

Uchinchi vazifa- ayollarni ularga mos mehnat bilan bandligini ta'minlash masalasidir. Ayollar uchun doimiy ish joylarini yaratish borasidagi muhim masala bilan bir qatorda, oilaviy biznes, kasanachilik, hunarmandchilik, tomorqa xo'jaligini keng rivojlantirish ishlari ham oqsamoqda.

Bu o'rinda rasmiyatchilikka, qog'ozbozlikka, hatto ko'zbo'yamachilikka berilish holatlari ham kam emas va bu haqida ko'plab haqqoniy misollarni keltirish mumkin.....[3]”

Akademik Ahmadali Asqarov. Pedagogik olim O. Musurmonova “oila ichida-oila manfaatlari bosh mezoni” sarlavhali maqolasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ota-onalar universitetlari ishini tiklash va shakllantirish zamirda ota-onalarni farzand tarbiyasiga tayyorlash, yoshlarga tibbiy, pedagogik-psixologik bilim berish ishiga e'tiborni kuchaytirish maqsadida oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga “Oilaviy hayotga tayyorlash kursi” ni kiritish maqsadga muvofiqdir[5]- deb, ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi mas'ul xodimi Gonzala Norboyev “Balog'at yoshidagi qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish” mavzusidagi maqolasida “Balog'at yoshidagi qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun eng avvalo ularning huquqiy bilimlarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish konsepsiyasi tomonidan turli davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan “Ayol va huquq” seminarlari xotin qizlarning



huquqiy bilimlarini oshirish yo'lida ijobiy natijalarni berish tabiiydir". Balog'at yoshiga yetgan qizlarni hozirgi zamon talabi asosida tarbiyalashda ularni maxsus dasturlar orqali o'qitish ko'zlangan natijani beradi. Bunda malakali mutaxassislarni jalb etgan holda ma'ruza, munozara, davra suhbatlari, tarbiyaviy soatlar kabi ish uslublaridan foydalanish mumkin[6].

Yurtboshimizning " Jamiyatda ijtimoiy ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son Farmoni ijrosini ta'minlash shuningdek, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va zamonaviy na'munali oila mezonlarini hayotga joriy etish maqsadida Vazirlar mahkamsi qaror qiladi:

Yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalamay turib, ularni ma'naviy kamolotga yetkazish, jamiyatni ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash mumkin emas. Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ma'naviy yuksak e'tiqodga ega bo'lgan umuminsoniy fazilatlar ruhida shakllantirish, yuqori malakali mutaxassis qilib yetishtirish bugungi kunning dolzarb muammosi sanaladi[2].

Shu o'rinda turk olimi Yusuf Tavoqliyning "Hikmatlar" kitobida onaning kelin bo'layotgan qiziga bergan nasihati e'tiborni tortadi:

Qizim senga aytadigan o'n o'gitinga quloq sol. Bularni yodingda tut:

1. Qanoat sohibasi bo'l. O'z hamingga shukur qil. Ya'ni ering uyga nimaiki olib kelsa, u xoh yeydigan, xoh kiyadigan narsa bo'lsin, xushfe'llik va go'zal odob bilan qabul qilib ol. Zero, baxtli hayot kechirmoqning bir yo'li o'z holiga shukur etmoqlikdir, holiga shukur etmagan, o'z nafsini tiymagan kishida ko'ngil huzuri, qalb rohati bo'lmaydi.

2. Eringga itoat qil, qil degan ishlarini qil, qilma deganini qilma. Ya'ni, ering bilan suhbatlashganda, muloqotda bo'lganingda itoatli bo'lishingni, uning so'zlarini odob bilan tushunib oladigan bo'lsin. Shunda Alloh taolo sendan xushnud va uyingiz saodati porloq bo'ladi.



3. Eringning ko'zi tushadigan joylarga yaxshi e'tibor ber. Ya'ni uying ichini, tashqarisini nihoyatda toza tut. Shunday qilki, eringning ko'ziga biror chirkin yer ko'rinmasin.

4. Ust-boshingni toza tut. Ering faqat xush bo'yingni sezsini, dimog'iga yomon hid kelmasin. Chunki, yomon hidlar ering ko'z o'ngida sening obro'yingni tushiradi. Sendan ijirg'anishiga sabab bo'ladi. Shuni yaxshi bilgilki, tozalik va zariflik eng yaxshi narsalardir, inson ko'ziga xush ko'rinishlik shular bilandir.

5. Ovqatni vaqtida tayyorla, ovqatlanish vaqtini hech qachon kechiktirma. Ering qachon ovqatlanishga o'rgangan bo'lsa, o'sha paytda ovqatini tayyorlagin. Shuni yaxshi bilginki, ochlik insonning jahlini tez keltiradi.

6. Uyqu vaqtini, uyg'onish paytini yaxshi bilib ol. Ya'ni uning qachon uyquga yotish payti bo'lsa, o'rmini tayyorlab qo'y. Zero, uyqusizlik insonni xafaqon etadi. Asablarning buzilishi, hafaqonlik odamlarning ehtirosi, muhabbatini sekin-asta so'ndiradi.

7. Eringning moli va ashyosiga e'tiborli bo'l. Ya'ni, uning mol-dunyosi yaxshi saqla, ashyolarini avayla, muhofaza qil. Chunki, uning mol-dunyosi senikidir. Eringning mol-dunyosi isrof etmaslik ishni bilish va qadriga yetish demakdir.

8. Eringning qarindosh va yaqinlariga hurmat ko'rsat. Ya'ni, eringning qarindoshlari va yaqinlariga hurmat qilish – uning e'tiborini qozonmoq demakdir.

9. Eringning sirini boshqalarga aytma. Aytsang uning ishonchini yo'qotasan.

10. Eringning diniga to'g'ri keladigan barcha buyruqlarni ado qil. Ammo bundan ona farzandlaridan yiroq ekan degan xulosa chiqarmaslik kerak. Zero, o'g'il farzand onaning kuch madori, kelajakdagi yorug' kunlarining charog'boni timsoli.

Yoshlarning ko'pchiligi aynan talabalik yillarida yoki uning yakunida oila qurganlari tufayli ham oila-nikoh munosabatlarida, oila a'zolari bilan muloqotda yuqori darajadagi ma'naviy-axloqiy va pedagogik-psixologik tayyorgarlik, turmush madaniyatiga ega bo'lishlari talab qilinadi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik talaba-yoshlar munosabatga kirishishga hali tayyor emaslar. Oilaviy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining "Oila kodeksi"da belgilab qo'yilgan. Bular nikoh, er-xotin, ota-ona, farzandlar va oilaning boshqa 12 a'zolari o'rtasidagi



munosabatlar. Shuning uchun ham oila qurishda yoshlar dastlab oila va nikoh tushunchasini, uning mohiyatini anglab etishlari zarur. “Oila-mafkuraviy tarbiyaning eng muhim omillardan biridir. Chunki oila- jamiyat negizi bo‘lib, ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo‘lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota mehri, ona mehri, orqali amalga oshadi. Oiladagi sog‘lom muhit milliy mafkurani shakllantirish manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, o‘zaro hurmat va ahillikni ta’minlash milliy mafkurada ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo‘ladi”. Azal-azaldan ota-ona munosabatlaridagi sabrlik, oilaviy muammolarini birgalikda hal etish, farzandlar, qo‘ni-qo‘shnilarga bo‘lgan samimiy muomaladan farzandlar andoza olganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev “Xotin qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” gi qarori, 2019-yil 2-sentabr.
2. Sh.M.Mirziyoyev “Jamiyatda ijtimoiy ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son Farmoni.
3. Sh.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. T.: - “O‘zbekiston” 2017/ 14-yanvar.
4. Qur‘oni Karim,-T.: “Cho‘lpon” 1992 yil.
5. O. Musurmonova “Oila ichida oila manfaatlari bosh mezoni” Xalq ta’lim, 1988-yil 2-son.
6. G.Norboyeva “ Balog‘at yoshidagi qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish”. Xalq ta’limi 1988 yil.